

“UzGasTrade” AЖ
Yagona aksidorining
2022 yil “30” sentabr dagi
5 -sonli qaroriga

6-ILOVA

“TASDIQLANGAN”

“UzGasTrade” AЖ
Yagona aksiyadorining
2022 yil “30” sentabr dagi
5 -son qarori bilan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI
MANFAATLAR TO‘QNASHUVIDA HARAKATLAR
TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent-2022yil

MUNDARIJA:

1.	UMUMIY QOIDALAR.....	3
2.	NIZOM TA'SIRI OSTIGA TUSHADIGAN SHAXSLAR DOIRASI.....	3
3.	JAMIYATDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING ASOSIY TARTIB-QOIDALARI.....	3
4.	MANFAATLAR TO'QNASHUVLARINING YUZAGA KELISH SABABLARI (SHART-SHAROITLARI).....	4
5.	MANFAATLAR TO'QNASHUVLARINING OLDINI OLISH.....	5
6.	MANFAATLAR TO'QNASHUVLARINI HAL QILISH.....	8
7.	YAKUNIY QOIDALAR.....	10

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon - Jamiyat) Ustaviga, Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan va Jamiyatda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlash va hal qilish tartibini belgilaydi.

2. Jamiyat faoliyatini amalga oshirish jarayonida Jamiyat (uning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari)ning mulkiy yoki boshqa manfaatlari hamda Jamiyat shartnoma munosabatlarini o'rnatgan kreditorlar, kontragentlar, boshqa tashkilotlar va shaxslar (quyida matn bo'yicha – "Mijozlar")ning mulkiy yoki boshqa manfaatlari o'rtasida Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari va (yoki) uning xodimlari harakati (harakatsizligi) natijasida Mijozning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yilgan holatlar oqibatidagi ziddiyatlar tufayli manfaatlar to'qnashuvlari yuzaga kelishi mumkin.

Bundan tashqari, Jamiyat aksiyadori manfaatlari o'rtasida, Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari va aksiyador (aksiyadorlar) manfaatlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvlari (korporativ nizo) yuzaga kelishi mumkin.

3. Mazkur Nizomda quyidagi manfaatlar to'qnashuvlari yuzaga kelish holatlari ko'rib chiqiladi:

- Jamiyat boshqaruv organlari va uning aksiyadori (aksiyadorlari) o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlari;

- Jamiyatning boshqaruv organlari va jamoat nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va Mijozlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlari;

- Jamiyat va Jamiyatning mansabdor shaxslari, xodimlari o'rtasida ular tomonidan xizmat vazifalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvlari.

II. NIZOM TA'SIRI OSTIGA TUSHADIGAN SHAXSLAR DOIRASI

4. Nizom ta'siri Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlariga hamda uning egallab turgan lavozim darajalaridan qat'iy nazar barcha xodimlariga joriy qilinadi.

5. Mazkur Nizomga rioya qilish to'g'risidagi talablar Jamiyat bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida hamkorlik qilayotgan jismoniy shaxslarga taalluqli vazifalar ular bilan tuzilgan shartnomalarda, ularning ichki hujjatlarida tasdiqlangan holatlarda yoxud bevosita qonunga muvofiq tatbiq qilinadi.

III. JAMIYATDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING ASOSIY TARTIB-QOIDALARI

6. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish quyida qayd etilgan asosiy tartib-qoidalariga asoslanadi:

- haqiqiy va potensial manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyligi;

- har bir manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanganda Jamiyat uchun obro'e'tiborga putur yetkazish xavflarini alohida ko'rib chiqish va baholash hamda ularni hal qilish;

- manfaatlar to'qnashuvi va uning hal qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilinish jarayonining qat'iy maxfiyligi;

- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari hamda uning xodimlari manfaatlari muvozanati (balansi)ga rioya qilish;

- xodim tomonidan o'z vaqtida oshkor qilingan va Jamiyat tomonidan hal qilingan (bartaraf qilingan) manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish tufayli shaxsni ta'qib qilinishdan himoyalash.

IV. MANFAATLAR TO'QNASHUVLARINING YUZAGA KELISH

SABABLARI (SHART-SHAROITLARI)

7. Jamiyatning boshqaruv organlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlari quyidagilar natijasida yuzaga kelishi mumkin:

- qonunlar, me'yoriy (normativ) hujjatlar va Jamiyatning ichki hujjatlariga rioya qilmaslik;

-- affillangan shaxslar bilan taalluqli bitimlar tuzish uchun belgilangan tartibga rioya qilinmasdan yirik bitimlar va shartnomalar tuzish;

- Jamiyatning boshqaruv organlari tomonidan Jamiyatning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilinishi;

- amaldagi qonunlar talablariga muvofiq axborot oshkor qilinmaganligi yoxud Jamiyatning boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi shaxslar tomonidan boshqa tashkilotlardagi boshqaruv organlarida egallab turgan lavozimlari to'g'risida, boshqa Jamiyatlar hissalariga (aksiyalari)ga egaligi to'g'risida to'liq axborot taqdim qilinmaganligi.

8. Jamiyatning boshqaruv organlari va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va Mijozlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvlari quyidagilar natijasida yuzaga kelishi mumkin:

- qonunlar, Jamiyatning ta'sis va ichki hujjatlariga rioya qilmaslik;

- Mijoz manfaatlarining Jamiyat manfaatlari oldidagi ustuvorlik tamoyili (prinsipi)ga rioya qilmaslik;

- amaliy munosabatlar me'yorlari va kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik;

- Mijozlar tomonidan ham, Jamiyat tomonidan ham shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi;

- qonunlar va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan belgilangan o'z vazifalarini bajarmaganlik.

9. Jamiyat va mansabdor shaxslar, xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvlari quyidagilar natijasida yuzaga kelishi mumkin:

- qonunlar va Jamiyatning ichki hujjatlari talablari buzilishi;

- amaliy munosabatlar me'yorlari va kasbiy axloq qoidalariga rioya qilmaslik;

- Jamiyat faoliyati bilan bog'liq ham shaxsiy, ham oila a'zolari tomonidan tijorat faoliyati yuritilishi;

- Jamiyat shartnoma munosabatlarini o'rnatgan boshqa Jamiyatda moliyaviy manfaatlar mavjudligi;

- boshqa tashkilotda o'rindoshlik asosida rahbar, mansabdor shaxs sifatida ishlash yoki uning boshqaruv organlarida ishtirok qilish;

- Jamiyat manfaatlariga zarar yetkazilgan holda, shaxsiy manfaatlarni ko'zlab boshqa tashkilotlarga amaliy imkoniyatlarni taqdim qilish.

V. MANFAATLAR TO‘QNASHUVLARINING OLDINI OLISH

10. Jamiyat Ustavi va uning ichki hujjatlari bilan manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish vositalari nazarda tutilgan.

Mazkur Nizom bilan manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish bo‘yicha Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan bajarilish uchun majburiy choralar belgilanadi.

11. Har qanday turdagi manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish maqsadida Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari quyidagilarni amalga oshirishlari shart:

- qonunlar, me‘yoriy (normativ) hujjatlar, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlariga rioya qilish;

- manfaatlar to‘qnashuvlari paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni sodir etmaslik va qarorlar qabul qilmaslik;

- Jamiyatning samarali boshqaruvini ta‘minlash;

- Jamiyatning noqonuniy faoliyatni amalga oshirishga, shu jumladan jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni qonuniylashtirish (chetga chiqarish) va terrorizmni mablag‘ bilan ta‘minlashga jalb qilinish imkoniyatini istisno qilish;

- mahsulotlarni ishlab chiqarishda (ishlar bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) maksimal imkoniyat darajasida samaradorlikni ta‘minlash;

- qonunlarga muvofiq yilning har choragida boshqaruv organlari oldida hisobot berish;

- Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlariga muvofiq ichki va tashqi nazoratni amalga oshirish;

- qonunlar va Jamiyat Ustavi bilan belgilangan miqdorlardan yuqori summada yirik bitimlar, alohida bitimlar yoki bir qator o‘zaro bog‘liq bitimlarni ko‘rib chiqish uchun Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;

- yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlarni tuzish shartlarini nazorat organlari bilan o‘rganishni amalga oshirish;

- zarur hollarda, qonunlar talablariga muvofiq bitimlar tuzish to‘g‘risidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan ma‘qullanganda, mulkning bozor qiymatini belgilash uchun mustaqil baholash tashkilotini jalb qilish;

- affillangan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisobga olinishini ta‘minlash;

- quyidagilar:

- a) affillangan shaxslar;

- b) Jamiyat aksiyadorlari va ularning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish tartibi ishlab chiqilishini va unga rioya qilinishini ta‘minlash;

- Jamiyatning vakolatli organlari tomonidan belgilangan tartibda oldindan ma‘qullanmasdan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlarni tuzmaslik;

- Jamiyatning Kuzatuv kengashi ruxsatisiz boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida lavozimlarni egallamaslik;

- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning amaldagi qonunlarga muvofiq va qo'shimcha ma'lumotlarning Jamiyat Axborot siyosati to'g'risidagi Nizomiga muvofiq oshkor qilinishini amalga oshirish;

- aksiyadorlarga va Mijozlarga, boshqaruv va nazorat organlariga, boshqa manfaatdor shaxslarga, shu jumladan reklama maqsadlarida taqdim qilinadigan buxgalteriya hisobotlari va boshqa e'lon qilinadigan axborotning shubhasiz to'g'riligini ta'minlash;

- Jamiyatda mavjud axborotdan bunday axborotdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishning oldini olish bo'yicha choralarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

- ommaviy axborot vositalarida va boshqa manbalarda Jamiyat to'g'risidagi salbiy axborotning to'g'riligini va xolisligini o'z vaqtida ko'rib chiqish. Har bir salbiy yoki asossiz axborot paydo bo'lish holati bo'yicha o'z vaqtida e'tibor qaratish;

- Jamiyat tomonidan o'rta muddatli va uzoq muddatli davrda barqaror daromad olinishini ta'minlash;

- Jamiyatning ichki nazorat tizimi kamchiliklarini aniqlashda ishtirok qilish;

- Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari a'zolariga to'lanadigan haqlarning Jamiyatning moliyaviy ahvoriga, shuningdek Jamiyat faoliyatining oldindan rejalashtirilgan ko'rsatkichlariga asosan erishilgan natijalariga muvofiqligini ta'minlash;

- kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

12. Jamiyat aksiyadorlari o'rtasidagi, shuningdek Jamiyatning boshqaruv organlari va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va Jamiyat aksiyadori (aksiyadorlari) o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlarining oldini olish maqsadida Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari quyidagilar amalga oshirishlari shart:

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, me'yoriy (normativ) hujjatlar, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlari bilan mustahkamlangan majoritar va minoritar aksiyadorlar huquqlariga rioya qilish;

- aksiyadorlarning qonuniy huquqlarini ta'minlash masalalarida Jamiyatning aniq va asoslangan nuqtai nazari aksiyadorlarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlash;

- hisoblab yozilgan dividendlarni o'z vaqtida to'lash;

- belgilangan tartibda aksiyadorlarga nizoga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha to'liq axborot taqdim qilish;

- raqobatchi Jamiyatdan aksiyalar (hissalar) xarid qilishda, shuningdek bunday shaxslarning boshqaruv organlarida ishtirok qilishda Jamiyat boshqaruv organlari a'zolari manfaatdorligi mavjud bo'lgan bitimlarni aniqlash;

- qabul qilina yotgan boshqaruv qarorlarining ob'ektivligini, xolisligi va mustaqilligini ta'minlash uchun Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari nomzod qilib ko'rsatishga intilish.

13. Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari va Mijozlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlarining oldini olish maqsadida Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari quyidagilar amalga oshirishlari shart:

- belgilangan tartibda Jamiyat to'g'risidagi axborot taqdim qilinishini ta'minlash;

- maxfiy va boshqa muhim axborotdan foydalanish tartibiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

- mahsulotlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish va Mijozdan shartnomada o'zaro kelishilgan asosda belgilangan miqdorda yoki tegishli ma'lumotlar to'liq oshkor qilingan tariflarga muvofiq haq undirish;

- o'z Mijozlari uchun mahsulotlar (xizmatlar)ni yuqori malakali, puxta va halol realizatsiya qilish, shuningdek Mijozlar topshiriqlarini joriy bozor shartsharoitlaridan kelib chiqib moliyaviy samaradorlik nuqtai nazaridan imkon darajada eng yaxshi tarzda bajarish;

- Mijoz shubhasiz xato qilganda (shu jumladan, Mijoz tomonidan imzolangan buyurtmanoma, ariza va boshqa hujjatda) xodimlar tomonidan ushbu vaziyatdan shaxsiy maqsadlarda ongli ravishda foydalanishni istisno qilish. Mijoz topshiriqnomasida bunday xato mavjud bo'lgan taqdirda, Jamiyat xodimi xato topshiriqnomaga bajarilishining oldini olish bo'yicha oqilona choralar ko'rishi va bu to'g'risida Mijozni xabardor qilishi kerak;

- Mijozga berilgan tavsiyalar tegishli masala bo'yicha mavjud axborotning vijdonan tahliliga asoslanishini ta'minlash;

- Jamiyatdagi qog'oz, magnitli va boshqa turdagi tashuvchilarda mavjud xizmatga tegishli yoki tijorat sirini o'z ichiga olgan axborot Jamiyatning boshqaruv organlari yoki vakolatli mansabdor shaxslari roziligisiz sotish, berish, nusxa ko'chirish, ko'paytirish, almashtirish va boshqa tarqatish va ko'paytirish predmetiga aylanmasligi uchun Jamiyat faoliyati jara yonida yaratilgan, o'zlashtirilgan va to'plangan axborotni saqlash tizimini takomillashtirish.

14. Jamiyat va mansabdor shaxslari, xodimlari o'rtasida ular tomonidan xizmat vazifalarini bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarining oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va xodimlar quyidagilar amalga oshirishlari shart:

- amaliy munosabatlar me'yorlari va kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

- belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

- Jamiyat bilan raqobatlashuvchi tashkilot hissasi (aksiyalari)ni xarid qilish maqsadi to'g'risida yuqori mansabdor shaxsni yoki Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlarini xabardor qilish;

- nizoli vaziyat yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratuvchi holatlar paydo bo'lganligi to'g'risida yuqori mansabdor shaxsni o'z vaqtida xabardor qilish;

- mansabdor shaxs yoki uning oila a'zolari sezilarli moliyaviy manfaatga ega bo'lgan va Jamiyat tijorat faoliyati yurita yotgan yoki yuritishni mo'ljallagan tashkilotlar to'g'risida yuqori mansabdor shaxsni yozma ravishda xabardor qilish;

- Jamiyat va mansabdor shaxs yoki uning oila a'zolari sezilarli moliyaviy manfaatga ega bo'lgan yoki affillangan shaxs bo'lgan tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan har qanday faoliyatdan saqlanish;

- manfaatlari Jamiyat manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan boshqa tashkilotlar boshqaruv organlarida ishtirok qilish uchun Jamiyat ijroiya organi rahbaridan oldindan ruxsat olish;

- boshqa tashkilotda o'rindoshlik bo'yicha ishlash maqsadi to'g'risida yuqori mansabdor shaxsni oldindan xabardor qilish va mo'ljallangan ish Jamiyat manfaatlariga zid kelmasligini tasdiqlovchi axborotni taqdim qilish.

VI. MANFAATLAR TO‘QNASHUVLARINI HAL QILISH

15. Jamiyatda yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvlarini hal qilish uchun Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari qonuniy va asoslangan, Jamiyat manfaatlariga javob beradigan yechimni topish maqsadida sudgacha tadbirlarni amalga oshiradilar.

16. Mansabdor shaxslar aksiyadorlar va Mijozlar tomonidan boshqaruv va nazorat organlari, korporativ kotib nomiga va tarkibiy bo‘linmalarga kelib tushadigan xatlar, arizalar va talabnomalar (shu jumladan, og‘zaki) hisob (uch yot)ga olinishi va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlashlari shart.

17. Manfaatlar to‘qnashuvlarini hisobga olish Jamiyatning korporativ kotibiga yuklanadi. Jamiyatning korporativ kotibi korporativ nizoga dastlabki baho beradi, masala mohiyati bo‘yicha kerakli hujjatlarni tayyorlaydi va Jamiyatning Kuzatuv kengashi bilan o‘zaro muvofiqlashtirgan holda ularni Jamiyatning mazkur korporativ nizoni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organiga topshiradi.

18. Jamiyatning korporativ kotibi aksiyadorlarning tez-tez uchraydigan masalalari va talablarini tahlil qiladi, ushbu masalalar bo‘yicha barcha aksiyadorlarga qo‘shimcha axborot taqdim qilish zarurati to‘g‘risida qaror qabul qiladi yoki mazkur turdagi murojaatlarni yuzaga keltiruvchi sabablarni bartaraf qilish maqsadida Jamiyatning ijroiya organi rahbariga ichki tartiblar va ko‘rsatmalarni o‘zgartirish, boshqa tadbirlar o‘tkazish bo‘yicha takliflar kiritadi.

19. Mijozdan yoki boshqa manbalardan nizoli vaziyat to‘g‘risida ma‘lumot olgan xodim yuqori mansabdor shaxsni bu to‘g‘risida zudlik bilan xabardor qilishi shart.

Nizoni tarkibiy bo‘linma darajasida hal qilish imkoni bo‘lmagan taqdirda, bo‘linma rahbari bir ish kuni mobaynida boshqaruv raisiga yoki uning o‘rinbosariga nizo, uning yuzaga kelish sabablari, ko‘rilgan choralar to‘g‘risidagi axborotni taqdim qilishi shart.

Boshqaruv raisi yoki uning o‘rinbosari nizoni hal qilish tartibini belgilaydi, vakolatli shaxsni tayinlaydi. Zarur hollarda, manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish uchun komissiya tashkil qiladi.

20. Vakolatli shaxs (komissiya) manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish uchun barcha choralarni ko‘radi. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish imkoni bo‘lmagan taqdirda, boshqaruv raisi masalani ko‘rib chiqish uchun boshqaruvga kiritadi, Kuzatuv kengashi raisiga nizo to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yuboradi.

21. Mazkur ma‘lumotlar Kuzatuv kengashi huzurida nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal qilish uchun tashkil qilingan qo‘mita (ishchi guruh) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

22. O‘z rivojlanishining biror-bir bosqichida Jamiyat boshqaruv raisi yoki uning o‘rinbosarlariga daxl qilgan yoki daxl qilish ehtimoliga ega nizo to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uch ish kuni mobaynida Kuzatuv kengashiga nizoni hal qilish tartibi to‘g‘risida qaror qabul qilish hamda qo‘mita (ishchi guruh) tomonidan kelgusi ko‘rib chiqilish va mazkur masala bo‘yicha xulosa taqdim qilinishi uchun topshiriladi.

23. Nizoni ko‘rib chiqish natijasida Jamiyatning ichki hujjatlarini ishlab chiqish yoki amaldagi ichki hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga kelgan taqdirda, Kuzatuv kengashi yoki ijroiya organi tegishli hujjatni ishlab chiqish yoki amaldagi hujjatlarga taalluqli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

24. Jamiyatning boshqaruv organlari Jamiyatda yuzaga keladigan har qanday turdagi manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvlarini maksimal tarzda tez aniqlash, ularning sabablarini belgilash;

- Jamiyat boshqaruv organlari vakolati va javobgarligini aniq farqlash;

- Jamiyatning vakolatli shaxsini belgilash yoki zarur hollarda, nizoni hal qilish bo'yicha komissiya tuzish;

- maksimal qisqa muddatlarda Jamiyatning nizo mohiyati bo'yicha nuqtai nazarini aniqlash, taalluqli qaror qabul qilish va uni nizoning ikkinchi Tomoni e'tiboriga yetkazish;

- nizoning ikkinchi Tomoniga Jamiyatning nizo mohiyati bo'yicha nuqtai nazarini to'liq va batafsil javob yuborish, shuningdek nizo ishtirokchisi iltimosi yoki talabi qondirilishini rad qilish to'g'risidagi xabarnomani qonunlar, Jamiyat Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy (normativ) hujjatlar, Ustav va ichki tartib hujjatlari asosida isbotlash;

- nizoni hal qilishda qatnashgan vakolatli shaxsning ushbu nizo uning manfaatlariga yoki uning oila a'zolari manfaatlariga daxl qila yotganligi yoki daxl qilishi mumkinligi to'g'risida zudlik bilan xabar berishini ta'minlash;

- nizo manfaatlariga daxl qila yotgan yoki daxl qilishi mumkin bo'lgan shaxslarning ushbu nizoni hal qilishda va u bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashmasligini ta'minlash.

25. Aksiyadorlar o'rtasidagi, Jamiyatning boshqaruv organlari va aksiyadorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun:

- Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi Jamiyat aksiyadorlari o'rtasida yuzaga kelgan nizoni hal qilishda vositachi bo'lishi mumkin;

- Jamiyatning vakolatli shaxsi yoxud vakolatli organi aksiyadorlar o'rtasidagi muzokaralarda qatnashishi, aksiyadorlarga ularning ixtiyorida mavjud bo'lgan va nizoga tegishli ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilishi, qonunlar me'yorlari, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlarini tushuntirishi mumkin;

- Jamiyatning vakolatli shaxslari yoki vakolatli organlari aksiyadorlarga maslahatlar va tavsiyalar beradi, aksiyadorlar tomonidan imzolanish uchun nizoni hal qilish to'g'risida hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi, Jamiyat nomidan o'z vakolatlari doirasida aksiyadorlar oldida nizoni hal qilishga ko'maklashadigan darajada majburiyatlar qabul qiladi;

- Jamiyatning boshqaruv organlari o'z vakolatlariga muvofiq korporativ nizoni hal qilish bo'yicha qarorlar bajarilishini tashkil qilishi va Jamiyat nomidan nizo ishtirokchisi tomonidan imzolangan kelishuvlar ijrosiga ko'maklashishi kerak. Nizo tomoni va Jamiyat o'rtasida ularning majburiyatlari mohiyati bo'yicha nizo bo'lmagan, biroq ularning bajarilish tartibi, usuli, muddatlari va boshqa shartlar yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelgan holatlarda, Jamiyat nizo ishtirokchisiga yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilishni taklif etishi va Jamiyat aksiyador talablarini qondirishga tayyor shartlarni bayon qilishi mumkin;

- agar Jamiyatning aksiyador talablarini qondirishga roziligi ushbu Tomonning qonunlar, Jamiyat Ustavi yoki boshqa ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan birorbir harakatlarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lsa, Jamiyat javobida bunday shartlar to'liq tarzda ko'rsatib o'tiladi, shuningdek ularning bajarilishi uchun kerakli axborot

(masalan, aksiyador tomonidan rasmiy talab qilingan hujjatlar nusxalarini yoki Jamiyatning bank rekvizitlarini tay yorlash uchun to'lov miqdori va h.k.) ma'lum qilinadi.

26. Mazkur choralar ro'yxati mukammal hisoblanmaydi. Har bir muayyan holatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish sohasiga qarab, nizoni hal qilishning boshqa shakllari qo'llanilishi mumkin.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

27. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlanadi.

28. Agar mazkur Nizomning ayrim me'yorlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga va/ yoki Jamiyat Ustaviga zid kelsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha mazkur Nizomga taalluqli o'zgartirishlar kiritiladigan paytga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari me'yorlariga va/ yoki Jamiyat Ustaviga amal qilinishi kerak.